

## Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-aprel oylari uchun

- I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-may holatiga ko'ra viloyatda 2 471 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 576 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 23,3 % i) boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 524 tasi (21,2 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 177 tasi (7,2 %) tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyatga, 171 tasi (6,9 %) mebel ishlab chiqarishga va 145 tasi (5,9 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni  
1-may holatiga ko'ra



## II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 54 280,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 111,3 % ni tashkil etdi.

|                        | Hajmi,<br>mlrd so'm | Fizik hajm<br>indeksi, % da |
|------------------------|---------------------|-----------------------------|
| <b>Navoiy viloyati</b> | <b>54 280,5</b>     | <b>111,3</b>                |
| Navoiy sh.             | 47 314,7            | 112,1                       |
| Zarafshon sh.          | 248,1               | 101,0                       |
| G'ozg'on sh.           | 41,3                | 101,0                       |
| tumanlar:              |                     |                             |
| Karmana tumani         | 3 421,9             | 85,4                        |
| Konimex tumani         | 212,6               | 89,6                        |
| Qiziltepa tumani       | 537,8               | 100,4                       |
| Navbahor tumani        | 403,8               | 107,5                       |
| Nurota tumani          | 159,1               | 100,2                       |
| Tomdi tumani           | 25,8                | 104,1                       |
| Uchquduq tumani        | 163,2               | 106,4                       |
| Xatirchi tumani        | 529,7               | 87,6                        |

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-aprel oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 44 915,0 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (82,8 %)ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 6 736,3 mlrd so'm (12,4 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 2 496,4 mlrd so'm (4,6 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 132,8 mlrd so'm (0,2 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi,  
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi  
2025-yilning yanvar-aprel oylarida



### III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 14,1 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2024-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 46,4 % ga oshgan), 32,7 tonna tvorog va tvorogdan mahsulotlar (13,9 % ga ko'paygan), 659,0 ming tonna sement (10,7 % ga kamaygan) hamda 874,0 tonna xlor (80,2 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

| Sanoat mahsulotlari                                          | 2023-yil yanvar-aprel* | 2024-yil yanvar-aprel* | 2025-yil yanvar-aprel |
|--------------------------------------------------------------|------------------------|------------------------|-----------------------|
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t                        | 13,2                   | 9,6                    | 14,1                  |
| Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna                       | 28,3                   | 28,7                   | 32,7                  |
| Yogurt, tonna                                                | 5,0                    | 0,8                    | 5,8                   |
| Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futbolbalar, ming d | 1 066,7                | 1 261,5                | 572,0                 |
| Azot, ming m3                                                | 6,2                    | 12,8                   | 123,3                 |

|                                                                        |       |       |       |
|------------------------------------------------------------------------|-------|-------|-------|
| Argon,<br>ming m <sup>3</sup>                                          | 55,7  | 461,0 | 550,0 |
| Mochevina<br>(karbamid),<br>ming t azot                                | 58,8  | 81,3  | 83,4  |
| Plastmassadan qattiq<br>quvurlar, trubkalar va<br>shlanglar,<br>ming t | 2,5   | 4,1   | 4,3   |
| Portlandsement,<br>ming t                                              | 852,3 | 738,0 | 659,0 |
| So'ndirilmagan va<br>so'ndirilgan ohak,<br>ming t                      | 23,3  | 100,1 | 101,7 |

*\*2023-2024-yillarning yanvar-aprel oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

**Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy  
faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 83,5 % (2024-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,1 % (2024-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,8 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2024-yilning yanvar-aprel oylarida 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 6,8 % (8,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 86,3 % (83,9 %), quyi texnologiyali 6,7 % (7,1 %)ni tashkil etgan.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan issiqlik elektr stansiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi 73,7 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 93,7 % ni tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari                                                                             | 2023-yil<br>yanvar-aprel* | 2024-yil<br>yanvar-aprel* | 2025-yil<br>yanvar-aprel |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------|---------------------------|--------------------------|
| Issiqlik elektr stansiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kvt.s | 3 623,3                   | 4 096,7                   | 3 017,4                  |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal                                                                  | 1 967,2                   | 2 018,1                   | 1 890,2                  |

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 6,6 m. ga ko'payish, oqava suvlarning shلامي 22,0 m. % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 32,3 % ni tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari                                                                    | 2023-yil<br>yanvar-aprel* | 2024-yil<br>yanvar-aprel* | 2025-yil<br>yanvar-aprel |
|----------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------|---------------------------|--------------------------|
| Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm                               | 14,7                      | 16,8                      | 110,5                    |
| Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm | 50,7                      | 53,6                      | 21,4                     |
| Oqava suvlarning shلامي, mlrd so'm                                                     | 1,1                       | 0,7                       | 15,7                     |

\*2023-2024-yillarning yanvar-aprel oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

#### IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 837,2 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 7,1 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-aprel oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 6,8 % ni tashkil etgan.



#### V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Sanoat bu** – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

##### Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

**Fizik hajm indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi** asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

### Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>  
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Sanoat va energetika  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**  
A. Suyarov  
79 223-33-29 (8510)

**Manzil:**

